

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DIQQATNI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

*Roziqova Malika Olimjon qizi*

*Namangan Davlat Pedagogika instituti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

*Nasirova Nilufar Nazirjon qizi*

*Maxsus pedagogika( logopediya) yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Tel:+998943852291*

*E-mail:nilufarnasirova262@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni rivojlantirishning ahamiyatini ko'rsatadi va buning uchun qo'llaniladigan samarali usullarni taqdim etadi. Diqqatni rivojlantirish bolalarning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. O'quvchilarning diqqatini oshirish uchun interaktiv metodlar, o'yinlar va guruh ishlari faol qo'llaniladi. Masalan, o'yin orqali o'rganish, yaratish va ijod qilish jarayonlari orqali o'quvchilar diqqatini uzluksiz saqlab qolish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, diqqatni rivojlantirish usullari boshlang'ich ta'limda samaradorligini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** Diqqat, rivojlanish, interaktiv metodlar, ta'lim strategiyalari, investitsiya, renessans, metodika.

Odama har bir daqiqada atrof-muhitdan juda juda ko'p narsa va hodisalar ta'sir etib turadi. Lekin odama ta'sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira aks ettiriladi yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa ana shu odama ta'sir etayotgan narsalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog'liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to'la aks ettiriladi.

Odam biror narsaga zo'r diqqat bilan kirishgan paytida uning tashqi qiyofasida ayrim o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Demak, diqqat odatda o'zining sirtqi, ya'ni tashqi alomatlariga egadir.

**Birinchiidan**, diqqat qaratilgan narsani yaxshi idrok qilish uchun unga muvofiqlashishga urinishdan iborat harakatlar (tikilib qarash, quloq solish) qilinadi.

**Ikkinchiidan**, ortiqcha harakatlar to'xtaydi. Jiddiy diqqatning xususiyatlaridan biri qimirlamay jim turishdir. Masalan, auditoriya va teatr zalidagi jimlik diqqat vaqtidagi harajatsizlik natijasi bo'lib, bu jimlik odamlar ma'ruzachini yoki artistni zo'r e'tibor bilan tinglashayotganini anglatadi.

**Uchinchiidan**, kuchli diqqat paytida kishining nafas olishi sekinlashib va pasayib qoladi.

Odam ayrim narsalarga o'z diqqatini ongli ravishda o'zi xohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatni beixtiyor, ya'ni bizning xohishimizdan tashqari jalb qiladi. Odam psixik faoliyatining muayyan obyektga yo'naltirishi va to'planishida ifodalanadigan diqqat quyidagi turlarga bo'linadi.

**Diqqatning aktivligiga qarab** -ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan so'nggi diqqat.

**Diqqatning obyektiga qarab**-tashqi va ichki diqqat.

**Diqqatning faoliyat turlariga qarab**-individual, guruhiy va jamoaviy diqqat.

N.N.Lange diqqatning iroda, instinktiv, reflektiv, perseptiv holatlar bilan bog'liqligini o'zining "Irodaviy diqqat nazariyasi" asarida ko'rsatib beradi. A.R.Luriyaning fikricha, kichik yoshdagi bolalarda diqqatning bu holatini ko'rish oson.(1)

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun diqqatni rivojlantirish juda muhim jarayon hisoblanadi, chunki bu yoshdagi bolalarning o'rganish mumkinligini belgilaydi va o'zlarining kelgusi muvaffaqiyatlariga ta'sir qiladi. Diqqatning rivojlanishi bolalarga o'zlarini tushunish, yangi ma'lumotlarga e'tibor berish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev maktablarda o'quv yuklanmasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidlagan. Bu masalada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyodagi eng ilg'orlardan biri. "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, muhit ham o'zgarmaydi",-dedi Shavkat Mirziyoyev." Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q",-dedi Shavkat Mirziyoyev. Yana prezidentimiz o'z nutqlarida shunday fikrni bayon etganlar: "Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz".(2)

Prezidentimiz yoshlarga juda katta e'tibor qaratadi va ularga bor vujudi bilan ishonadi. Ularning ishonchini oqlash uchun nafaqat tarbiyachi, o'qituvchilar, balki otalar ham bor kuchini ishga solib, ko'proq e'tiborini farzandlarining ta'lim-

tarbiyasiga, odob-axloqiga qaratishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tish mobaynida ularning diqqatini bir joyga jamlash maqsadida turli o'yinlar bilan dars jarayonini boyitishadi. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar mavzularni yaxshi o'zlashtirishadi. Bunday o'yinlarga misol tariqasida, "Meni top!" o'yinini keltirishimiz mumkin. Bu o'yinda o'qituvchi stol ustiga bir nechta hayvon yoki meva rasmlarini joylashtiradi va o'quvchilardan birini tanlaydi. O'qituvchi o'quvchiga ma'lum bir hayvon yoki mevani rasmlar orasidan topishini buyuradi, o'qituvchining buyrug'i bilan o'quvchi bor diqqatini turfa xil rasmlar orasidan qidirishga topshirilgan rasmni qidirishni boshlaydi. Rasmlarni qisqa vaqt ichida topgan o'quvchilar o'qituvchilar tomonidan rag'batlantirilishi ham mumkin. Bu jarayon o'quvchilarning diqqati jamlanishini yaxshilaydi va bevosita ularning kayfiyatlariga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Bu o'yinni boshqacharoq talqinda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, o'quvchi stol ustidagi rasmlarga qisqa vaqt ichida bor diqqatini qaratgan holda suratlarni eslab qoladi. Ustozining buyrug'i bilan bola ortga qaraydi va bu vaqt mobaynida o'qituvchi rasmlar orasidan birini olib qo'yadi. Boladan esa yo'qolgan surat qaysiligini aytish so'raladi. Yana o'qituvchi bolalarning diqqatini tortish uchun ularga turli qiziqarli savollar berishi yoki so'zlar zanjiri o'yinini tashkil etishi mumkin. Bu o'yin har bir o'quvchi avvalgi ishtirokchining so'zini eslab, unga yangi bir so'z qo'shishi orqali amalga oshiriladi. Shu tarzda dars jarayonini o'tkazish o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham birdek foydali hisoblanadi. Shuning uchun maktablarda dars jarayonlarini ma'lum bir o'yinlar orqali olib borish zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni rivojlantirish ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli o'tishi uchun muhim ahamiyatga ega. Diqqatni rivojlantirish jarayoni nafaqat bilim olishda, balki o'z-o'zini boshqarishda va mustaqil fikrlashda ham katta rol o'ynaydi. Shuning uchun diqqatni rivojlantirish ta'lim jarayonini yaxshilash va o'quvchilarni muvaffaqiyatli kelajak sari yo'naltirishda asosiy omil hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" darsligidan. 2009.
2. Sh.M.Mirziyoyevning ta'lim-tarbiya jarayoniga investitsiya kiritishga oid g'oyaviy so'zlaridan.
3. Atoyan A.G. Zamonaviy jamiyatda millatlararo nikohlarga munosabat // Fan va amaliyot integratsiyasi zamonaviy jamiyatni samarali rivojlantirish mexanizmi sifatida: Xalqaro elektron simpozium materiallari, Maxachqal'a, 2014 yil 28 noyabr.
4. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Interpretation and researches*, 1(1).

5. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o'quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. *Science and Education*, 5(5), 331-335.
6. Roziqova, M. (2024). O'smirlarda ijtimoiy tarmoqlar tasirida yuzaga keladigan muammolar va ularning oldini olish psixologik xizmatning dolzarb vazifasi sifatida. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 41(1), 95-97.
7. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *PEDAGOGS*, 48(2), 49-51.
8. Roziqova, M., & Moxistarabonu, X. (2024). INKLYUZIV TALIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(1), 92-94.
9. KO, KZOVZ, & MAXSUS, RB KORREKSION MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETILISHI Roziqova Malika Olim qizi.